UO‘K: 371.31

MAKTAB O‘QUVCHILARINI PISA XALQARO TADQIQOTIGA TAYYORLASH UCHUN NAMUNAVIY TOPSHIRIQLAR

N.I. Ismadiyorova

Maqolada maktab o‘quvchilarini PISA xalqaro baholash dasturiga tayyorlash uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan topshiriqlardan namunalar berilgan. Shuningdek o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘nalganligi talab doirasida ekanligi 6-sinf darsligidagi matnlar bilan ishlash jarayonida asoslanilgan.

Kalit so‘zlar: *PISA, matn turlari, matn formati, yaxlit matn, yaxlit bo‘lmagan matn.*

В статье приведены примеры заданий, призванных стать основой подготовки школьников к программе международного оценивания PISA. Признано, что процесс работы с различными текстами, представленными в учебнике для VI класса, направлен на развитие у учащихся навыков понимания прочитанного.

Ключевые слова: *PISA, типы текстов, текстовый формат, интегрированный текст, неинтегрированный текст.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoni bugungi kun o‘quvchisining o‘qib tushunish, o‘rganganlarini turli vaziyatda qo‘llay olish mahoratini shakllantirish muhim ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu farmonda O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib “PISA” Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish belgilab qo‘yilgan, bu natijaga erishish uchun esa o‘qituvchi va metodist olimlardan yangi darsliklar yaratish va ushbu darsliklar mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi dars metod va usullar ishlab chiqishni talab etadi. Hozirda yangi darsliklar maktab o‘quvchilariga yetib borgan, ammo dars jarayonida mazkur darsliklar asosida qo‘llaniluvchi yangicha dars usullari endi ishlab chiqilmoqda.

Shunday ekan, ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish, PISA topshiriqlariga yondosh topshiriqlar yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Material va usullar

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma sifatida Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan nashrga tayyorlangan “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash” nomli kitob orqali PISAda taqdim etiladigan matn va topshiriq turlari, ularga qo‘yiladigan baholarning darajasi, shuningdek, namunaviy topshiriqlar o‘rganildi. “O‘qish savodxonligi qamrov doirasi” qo‘llanmasida esa matnning format bo‘yicha turlari sanab o‘tilgan. Muammoni o‘rganish jarayonida debat, suhbat, qiyoslash, kuzatish, amaliy bajarish kabi metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

PISA xalqaro tadqiqotida mamlakatimiz ishtiroki e’lon qilingandan so‘ng bir qator ilmiy manbalar va tadqiqotga tayyorlov uchun xizmat qiluvchi ilmiy ishlar nashr qilindi. Ular orasida “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash” nomi bilan nashr qilingan ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanmasida matnning “qisqa, uzun va aralash turi” [1. B. 22], “O‘qish savodxonligi qamrov doirasi” kitobida matn formati bo‘yicha matnlar “… yirik hajmli, kichik hajmli, aralash yoki murakkab” [2. B. 39] kabi turlarga ajratilgan. Shuningdek, xalqaro


baholash dasturi PISAda beriladigan topshiriq matnlari ikki xil: yaxlit va yaxlit bo‘lmagan matn turlaridir. Yaxlit matnda barcha ma’lumotlar yaxlit tizimga muvofiq navbatma-navbat beriladi. Yaxlit bo‘lmagan matn esa o‘z tarkibiga turli ko‘rinishdagi jadvallar, rasmlar, diagrammalarni ham qamrab oladi. Yaxlit bo‘lmagan matnlar o‘quvchining e’tiborli bo‘lishini talab qilib, ularni mantiqiy fikrlashga, ma’lumotni hayot bilan bog‘lashga undaydi.

“O‘qish savodxonligi qamrov doirasi” kitobida PISA-2018 o‘qish savodxonligi qamrov doirasidagi matn ustida ishlash jarayoni va ravon o‘qishni quyidagi jadval asosida izohlash mumkinligi ko‘rsatilgan [2. B. 28].

Ma’lumotlarni topish	Tushunish	Baholash va mulohaza yuritish
Matn ichidan ma’lumotni qidirib topish va ajratib olish	To‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosini ifoda qilish	Matnning sifati va ishonchliligini baholash
Tegishli matnni izlash va saralash	Xulosalarni umumlashtirish va hosil qilish	Matn shakli va mazmuni ustida mulohaza yuritish
		Kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish

Aynan ushbu kitobda O‘qish savodxonligining oshishiga ko‘maklashuvchi omillar sifatida 3 tasi sanab o‘tilgan. Bular esa o‘quvchi bilan bog‘liq omillar, matn bilan bog‘liq omillar va topshiriq bilan bog‘liq omillar hisoblanadi [2. B. 28].

Yangi darsliklarda ham yuqoridagi matn turlariga xos matn turlari keltirilgan bo‘lib, PISA namunasidagi matnlarning mavjudligi ijobiy holat. Masalan, 6-sinf ona tili darsligidagi “Hududlar bo‘yicha kasalliklar statistikasi” [3. B. 26] nomli diagramma qo‘llanilgan. Ushbu diagrammali matn PISA topshiriqlarida keltiriluvchi matnlar tasnifiga ko‘ra, matn yaxlit bo‘lmagan matn, matn formati bo‘yicha esa murakkab matn hisoblanadi. Quyida ushbu ko‘rinishdagi matnlar ustida ishlash usullari namuna qilingan.



Darslikda diagramma yuzasidan hududlar bo‘yicha kasalliklar ulushini gapirib berish, shuningdek, jadval nomi, hududlar, rang varaqalariga diqqat qaratish kerakligi sharti qo‘yilgan. Fikrimizcha, ushbu topshiriqlarga xalqaro tadqiqotlar talablariga mos tarzda o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiq. Bu orqali o‘quvchilar PISA uchun tayyorlanib boradilar, shuningdek, ularda fikrlash, mulohaza yuritish va taqqoslash ko‘nikmalari oshib boradi.

Ushbu diagramma asosida PISA talablariga mos keluvchi topshiriqlarni quyida taqdim etamiz:

1. Har uchala kasallik bo‘yicha qaysi hudud aholisining sog‘ligi yaxshiroq ko‘rsatkichda?
2. Xulosangizni izohlang.
3. Nafas olish a’zolari kasalliklari bo‘yicha eng yomon ko‘rsatkich qaysi hudud(lar)ga mos keladi?

4. Nega aynan ushbu hududlarda nafas olish a’zolari kasalliklari ulushi boshqa hududlarga nisbatan baland ko‘rsatkichni tashkil etadi?

5. Vodiyda qaysi kasallik eng past ko‘rsatkichni taqdim etadi va buning asosiy sababi nima?

6. Ovqat hazm qilish kasalliklari ulushi qaysi hududlarda eng past ulushni tashkil etadi?

Topshiriqlarga javoblar va ushbu savollardan ko‘zlangan ta’limiy maqsadlar:

1. Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo (Berilgan matnni tushunib, tahlil qila oladilar va taqqoslash orqali o‘z javoblarini isbotlashga harakat qiladilar).

2. Chunki diagramma bo‘yicha kasalliklarning eng kam ulushi 30% bo‘lib, ikki kasallik bo‘yicha ushbu ko‘rsatkichga ega hududlar sifatida sanab o‘tilgan hududlar to‘g‘ri javob bo‘ladi (O‘quvchilar o‘z fikrini tasdiqlab, himoya qila olish imkoniga ega bo‘ladi).

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Navoiy (Berilgan matnni tushunib, tahlil qila oladilar va taqqoslash orqali o‘z javoblarini isbotlashga harakat qiladilar).


4. Chunki ushbu hududlar Orol dengizi hududi bilan bog‘langan. Ushbu dengiz joriy holda qumliklar va tuzliklar bo‘lib, bu nafas olish a’zolariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi (Yuqorida keltirilgan afzalliklardan tashqari bu topshiriq fanlar integratsiyasini yuzaga chiqaradi, o‘quvchilar geografiya, ekologiya va biologiya fanlaridan o‘zlashtirgan bilimlarini muayyan qarashlarini himoya qilish jarayonida eslaydi va unga tayangan holda xulosaga keladi).

5. Nafas olish a’zolari kasalliklari (O‘qib tushunish kompetensiyasi, taqqoslash ko‘nikmasi, geografik bilim va vodiy so‘zi ma’nosini bilishsa, bu topshiriqni to‘g‘ri bajara oladilar).

6. Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy (Yuqorida sanalgan afzalliklarni sanash mumkin).

O‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish qisqa vaqt oralig‘ida namoyon bo‘lmaydi. Buning uchun ham tajriba, mashqlar kerak bo‘ladi.

Shuningdek, ushbu darslikda mustaqil bajarish uchun diagrammali, PISA talabi bo‘yicha yaxlit bo‘lmagan matn topshirig‘i keltirilgan. Ushbu matnni tushunish uchun ham o‘quvchidan diqqatli bo‘lish talab etiladi.



Darslikda ushbu yaxlit bo‘lmagan matndan tushunganlarni so‘zlab berish topshiriq qilib berilgan. Bu topshiriq gapirish ko‘nikmasini oshirishga xizmat qilsa-da, uning negizini o‘qib tushunish tashkil etadi.

Ushbu matn bo‘yicha turli topshiriqlarni taqdim etish mumkin. Masalan,

1. Mamlakatimiz etnik tarkibiga ko‘ra, tub aholisining 97, 9 foizi turkiy xalqlar bo‘lishi mumkinmi?

2. Javobingizni izohlang.

3. Tasavvur qiling, doira shaklidagi to‘rt kesilgan. Unda eng kichik bo‘lak sizga tegdi. Sizga bu yuqoridagi diagrammadan nimani eslatdi?

Javob. 1. Yo‘q. 2. Chunki diagrammada 84,3 % o‘zbeklar, 4,1 % boshqa millatlar ekanligi tasvirlangan. Boshqa millatlar tushunchasi keng bo‘lib, ular toifasiga turklar yoki fransuzlar kirishi mumkin. Shunda turkiy xalq tushunchasi noto‘g‘ri ishlatilgan bo‘ladi. 3. Ruslarni.

Ushbu topshiriqlardan ko‘zlangan ta’limiy maqsad sifatida biz yaxlit bo‘lmagan matnni tushunganimizni isbotlash va tasavvur yordamida fikrlab javob topishni aytishimiz mumkin bo‘ladi.

Yuqorida yaxlit bo‘lmagan matnning ikkita vizual tasvir namunasini tahlil qildik. Umuman olganda, shu kabi vizual tasvirlar matn sifatida berilishining 7 turini ko‘rsatish mumkin:

1. Table – jadval.
2. Bar chart – shtrixli diagramma.
3. Line graph – chiziqli grafik.
4. Pie chart – doiraviy diagramma.
5. Process – holatni aks ettiruvchi tushunchalar.
6. Map – xarita.
7. Aralash vizual tasvirlar [4. B. 7].

Jadval shaklidagi vizual matnda ma’lumotlar kataklarda jamlangan bo‘ladi. Masalan, 7-sinf ona tili darsligida keltirilgan “C vitamin” [5. B. 45] mavzusi misol bo‘la oladi. Chiziqli grafik qatnashgan matnda muayyan vaqt va raqamlar orasida o‘sib yoki kamayib boruvchi miqdorlarning statistikasini ko‘rsatishga mo‘ljallangan nuqtalar kesishmasini anglatadi. Holatni aks ettiruvchi jadvallar go‘yoki klaster usulining rasmli shakliga o‘xshaydi. Aralash vizual matnlarda esa shtrixli diagramma va doiraviy diagramma birga qo‘llanilishi yoki doiraviy diagramma jadval bilan birga matn holatiga keltirilgan bo‘lishi mumkin.

Har qanday matnni tushuna olish shu kabi matnlar ustida ishlash jarayoni vositasida namoyon bo‘ladi. Yangi darsliklarning yaratilishi ham ushbu maqsadga yo‘naltirilgan hisoblanadi. Matnni tushunish va uni amaliyot bilan bog‘lash, albatta, grammatikani mukammal egallamasdan turib namoyon bo‘lmaydi. Biz quyida qo‘shma so‘zlar mavzusini tushuntirish usullarini taqdim etmoqchimiz. Bunda rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Qabul qiluvchilarning vizual o‘rganuvchilar, ovoz orqali o‘rganuvchilar, o‘qish-yozish orqali o‘rganuvchilar, kinestetik o‘rganuvchilar [6. B. 41] toifalaridan ushbu dars usuli vizual qabul qiluvchilar uchun mo‘ljallangan. Tanlab olingan har ikki so‘zning alohida olinganda o‘z ma’nosi bo‘lgan, qo‘shma so‘z hosil qilinganda bir ma’noni anglatishini ushbu vaziyatda o‘rganish mumkin. Masalan, qo‘lning surati va qopning surati (bu kabi suratlar sonini ko‘paytirish tavsiya etiladi) birlashganda qo‘lqopning surati taqdim etiladi. Chiqarilgan natijaga ko‘ra so‘z va so‘z birikmasining o‘zaro farqini tushuntirish ham oson kechadi. Bu jarayonni boshqa qator qo‘shma so‘zlarni hosil qilish jarayonida ham qo‘llash mumkin. Aynan ushbu jarayonlarning o‘zida kuzatish, taqqoslash kabi usullarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘linadi. Ushbu metod ham o‘quvchida sergaklikni oshiradi va fikrlashga o‘rgatadi. Shu vaqtga qadar o‘quvchilar amaliy faoliyatdan [7. B. 342] alohida bo‘lganligi aytilgan. Ijodkor va mustaqil fikrlaydigan shaxsni tayyorlash Ona tili ta’limining maqsadi ijodkor va mustaqil fikrlaydigan shaxsni tayyorlash ekanligi ta’kidlanadi. [8. B. 12] ona tili ta’limining maqsadi ekanligi ta’kidlanadi

Ushbu amaliy jarayonlar ahamiyatini, birlik, klaster va testlet tushunchalarini [9. B. 7] o‘rganish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, interfaol metodlar va interfaol ta’lim strategiyalarni [10. B. 11] farqlash ham muhimdir. Ushbu taqdim etilayotgan metodni interfaol metod deyish mumkin.

Tr	Rasm	Rasm	Hosila
1			

Xulosa

O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev o‘qituvchilar oldiga qo‘ygan xalqaro tadqiqotlarda 2030-yilgacha yuqori 30 talikka kirish vazifasini bajarish uchun yagona yo‘l, ta’limni amaliyotga bog‘lash va faqat mehnat hisoblanadi. Shuning uchun har bir ona tili o‘qituvchisidan darslikdagi mashq va topshiriqlar bi-

lan chegaralanib qolmay, darslikka muvofiq keluvchi qo‘shimcha topshiriqlarni mohirona yaratish talab etiladi. Yuqoridagi kabi topshiriqlar o‘quvchilarda har qanday turdagi matnlarni o‘qib tushunib, topshiriqlarni bajara olish imkoniyatini yaratishga yordam beradi. Umuman olganda, hozirgi ta’limda bilimdan amaliyotga va natijaga qarab yo‘nalish yetakchilik qilmoqda. Oldin amalda bo‘lgan pedagogik jarayondan maqsad o‘quvchilarga bilim berish bo‘lgan bo‘lsa, endi ana shu bilimning samarasini ko‘rsatish eng ustuvor vazifaga aylandi. Ana shu vazifani amalga oshirishda har bir pedagog o‘z ustida ishlashi, zamon bilan hamnafas bo‘lishi talab qilinadi. Kelgusi tadqiqotlarda munosib o‘rinni band etish uchun mehnat hozirdan boshlanishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash /Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent: Sharq, 2019. – 90 b.

2. O‘qish savodxonligi qamrov doirasi. /Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. –Toshkent: “Matbaa bo‘limi”, 2021. – 87 b.

3. *Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M*. Ona tili / 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Tafakkur avlodi” MChJ, 2022. – 224 b.

4. Adam Smith. Academic training module. – London: “First Published”, 2015. – 104 b. [Internet manba]. URL: @ieltsjournal. (Murojaat etilgan sana: 12.01.24)

5. *Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M.* Ona tili. / 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Kolorpak” MChJ, 2022. – 196 b.

6. *Pritchard A*. Ways of learning (Learning theories and learning styles in the classroom) Second edition. – London: “Routledge”, 2009. – 122 b.

7. *Yusupova Sh., Kaziyeva T.* Akademik litsey o‘quvchilariga fonetikani tushuntirishda shakliy va mazmuniy nomuvofiqlikni o‘rgatish usullari // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2019. – № 4. – B. 342–347.

8. *Yusupova Sh., G‘oziyeva O.* Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – Andijon, 2013. – 107 b.

9. Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish va tashkil etish. /Ta’lim sifati monitoring bo‘limi. – Namangan: “Bo‘lim nashriyoti”, 2019. – 12 b.

10. *Usmonov S.* Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xorijiy tajribalardan foydalanib, o‘qish savodxonligini oshirish. // Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi, 2023. – B. 4–12.

SAMPLE TASKS FOR PREPARING SCHOOLCHILDREN FOR THE PISA INTERNATIONAL STUDY

Nafisaxon I. Ismadiyorova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Research. 2024. 2 (78). 69-74.

[1]Andijan State Pedagogical Institute Uzbekistan, Andijan, 170100, str. Do‘stlik, 4. (Uzbekistan). E-mail: andupi@edu.uz

Key words: PISA, text types, text format, integrated text, non-integrated text.

The purpose of the article is to provide methodical support to school teachers of mother tongue and literature and thereby prepare them for PISA tasks. In the process of preparing the article, the materials published by the National Center for the Implementation of International Research on the Evaluation of the Quality of Education under the Education Inspectorate were used. Also, sample tasks of PISA freely provided by OECD were analyzed. In the process of solving the problem, interview, analysis, question-

naire, debate, comparison and observation methods were used. This article presents examples of tasks intended to be the basis for preparing schoolchildren for the PISA international assessment program. It is recognized that the process of working with various texts presented in the 6th grade textbook is aimed at developing students' reading comprehension skills. The article also gives a special description of the types of texts presented in international studies. 7 different versions of texts with visual images are explained. Forms for reading and understanding text types in the form of bar and pie charts, processing tasks related to this text, and proving it are presented. Examples of assignments and their advantages are listed in order to achieve a high result in research. Currently, it is important to prepare students as a part of society. Also, educating a person who can turn the knowledge he has learned into skills and has the skills to apply it to life is a requirement of the new modern education. The article serves to reveal such a practical process.

References:

1. (2019) Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash [Assessment of students' reading literacy in international studies]. Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi [National Center for the Implementation of International Studies on the Evaluation of the Quality of Education under the Education Inspectorate].Tashkent: Sharq.

2. (2021) O‘qish savodxonligi qamrov doirasi [Reading literacy coverage Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi [National Center for the Implementation of International Studies on the Evaluation of the Quality of Education under the Education Inspectorate]. Tashkent: “Matbaa bo‘limi”.

3. Azimova, I., Mavlonova, K., Quronov, S., Tursun, Sh., Hakimova, N., Siddiqov, M. (2022) *Ona tili* [Mother tongue]. 6th grade textbook. Tashkent: “Tafakkur avlodi”.

4. Adam Smith. (2015) Academic training module. London: “First Published”.

5. Azimova, I., Mavlonova, K., Quronov, S., Tursun, Sh., Hakimova, N., Siddiqov, M. (2022) *Ona tili* [Mother tongue]. 7th grade textbook. Tashkent: Tashkent: “Kolorpak”.

6. Pritchard, A. (2009) Ways of learning (Learning theories and learning styles in the classroom) Second edition. London: “Routledge”.

7. Yusupova, Sh., Kaziyeva, T. (2019) Akademik litsey o‘quvchilariga fonetikani tushuntirishda shakliy va mazmuniy nomuvofiqlikni o‘rgatish usullari [Methods of teaching formal and substantive inconsistency in explaining phonetics to academic lyceum students]. *Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi*. No 4. Pp 342-347.

8. Yusupova Sh., G‘oziyeva O. (2013) Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi [Interactive methods and computer software in mother tongue teaching]. Andijan.

9. (2019) Preparation and organization of international studies in the field of education quality assessment in the public education system [Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish va tashkil etish]. Ta'lim sifati monitoring bo‘limi [Education quality monitoring department]. Namangan: “Bo‘lim nashriyoti”.

10. Usmonov, S. (2023) Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xorijiy tajribalardan foydalanib, o‘qish savodxonligini oshirish [Improving reading literacy of primary school students using foreign experiences]. *Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi*. No 4. Pp. 4-12.

Muallif haqida ma'lumot:

ISMADIYOROVA Nafisaxon Ibrohimjon qizi – Andijon davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi. E-mail: nafisaismadiyorova@gmail.com